



**ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ”
ASARIDA TA’LIMIY AXLOQIY MASALALAR**

Qosimova Gulzoda

DTPI Pedagogika va psixologiya kafedrasi o’qituvchisi

Xoliyorova Madina

Pedagogika ta’lim yo’nalishi talabasi

E-mail: madinaxolyarova17@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ma’rifatparvar mutafakkir Abdulla Avloniy tomonidan yozilgan “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida ilgari surilgan ta’limiy va axloqiy g’oyalarning mohiyati tahlil etiladi. Maqolada asarning o’zbek maktabchiligi va tarbiya tizimida tutgan o’rni, undagi axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan pand-nasihatlar, milliy va insoniy qadriyatlar bilan uyg’unligi yoritiladi. Shuningdek, Avloniy tomonidan ilgari surilgan axloqiy normalarning bugungi kunda dolzarbligi va zamonaviy pedagogik jarayonga integratsiyalash imkoniyatlari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari “Turkiy Guliston” asarining nafaqat adabiy, balki amaliy-pedagogik qiymatini ham ochib beradi.*

Kalit so’zlar: *Abdulla Avloniy, Turkiy Guliston, vijdon, axloqiy tarbiya, halollik, insoniylik, ma’naviyat, zamonaviy ta’lim, pedagogika, milliy qadriyatlar.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается сущность просветительских и нравственно-воспитательных идей, изложенных в произведении выдающегося мыслителя-просветителя Абдуллы Авлони — «Турецкий гулистан или этик». В статье освещается значение данного труда в истории узбекской школьной педагогики и системы воспитания, акцентируется внимание на наставлениях, направленных на формирование нравственных качеств, а также их гармония с национальными и общечеловеческими ценностями. Особое внимание уделяется актуальности выдвинутых Авлони нравственных норм в условиях современного образовательного процесса и возможностям их интеграции в педагогическую практику. Результаты*



исследования раскрывают не только литературную, но и практически-педагогическую ценность произведения «Турецкий Гулистан».

Ключевые слова. Абдуллы Авлони, «Турецкий Гулистан». совесть, нравственное воспитание, честность, человечность, духовность, современное образование, педагогика, национальные ценности.

Abstrakt: This article analyzes the essence of the educational and moral ideas put forward by the enlightened thinker Abdulla Avloni in his work “Turkiy Guliston or Ethics.” The paper explores the significance of this work in the context of Uzbek pedagogy and moral education, emphasizing the advice aimed at fostering ethical qualities and its harmony with both national and universal values. Moreover, the article discusses the relevance of Avloni’s ethical principles in today’s educational landscape and their potential integration into modern pedagogical practices. The findings of the study reveal that “Turkiy Guliston” holds not only literary but also practical-pedagogical value.

Key words: Abdulla Avloni, Turkiy Gulistan, conscience, moral education, honesty, humanity, spirituality, modern education, pedagogy, national values.

KIRISH

XX asr boshlarida O‘zbekiston ijtimoiy-ma’naviy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati, xalqni ilm-ma’rifatga chorlab, ta’lim-tarbiyani zamonaviy asosda rivojlantirishga qaratilgan edi. Ushbu harakatning yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari orqali yosh avlodni axloqiy va ma’naviy jihatdan tarbiyalash, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirishga alohida e’tibor qaratdi.

Mazkur asar, o‘zbek adabiyotidagi dastlabki didaktik asarlardan biri bo‘lib, unda ta’lim va tarbiya masalalari keng yoritilgan. Avloniy ta’limni millatning yuksalishi va taraqqiyotining poydevori deb hisoblagan. Shuningdek, u tarbiyani insonning ma’naviy poklanishi va jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi asosiy omil sifatida ta’riflaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA



"Turkiy guliston yoxud axloq" – Avdulla Avloniy tomonidan yozilgan va ilk bor 1913-yilda nashr etilgan muhim ma'naviy-tarbiyaviy asarlardan biridir. Ushbu kitob Turkiston jadidchilik harakatining yetuk namunalaridan bo'lib, unda xalqni ilma'rifatga chorlash, axloqiy tarbiya berish, jamiyatni johillik va qoloqlikdan chiqarish g'oyalari adolat, mehnatsevarlik, sabr-toqat kbi fazilatlarini targ'ib qiladi

Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi **vijdon** mavzusini chuqur falsafiy va tarbiyaviy asosda tahlil qiladi. Asarda vijdon insonning ichki ruhiy kuchi, axloqiy amallarni baholovchi ichki mezon sifatida tasvirlanadi. Bu fikr bugungi ta'limda shaxsning axloqiy ongini shakllantirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Avloniyning talqinicha, vijdon insonni to'g'ri yo'lga boshlovchi ichki "oyina" bo'lib, har bir inson o'z xatti-harakatini ushbu oyina orqali baholay olishi kerak. Bu fikr zamonaviy pedagogikada o'zini refleksiya qilish, axloqiy o'z-o'zini nazorat qilish kompetensiyalariga mos tushadi.

Vijdon orqali inson:

- Yaxshi-yomonni farqlaydi,
- Halollik va insoflik bilan yashaydi,
- O'z xatolarini tan oladi,
- Atrofidagilarni emas, avvalo o'zini tarbiyalaydi.

Avloniyning vijdon haqidagi talqini yosh avlodni nafaqat bilimli, balki insoniy fazilatlar bilan komillikka yetaklovchi, yuqori axloqiy ongga ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalashda dolzarb metodik asos vazifasini bajaradi. Yana shuni aytishimiz mumkinki bu asarda ota-onaga hurmat qilish, ustozlarni qadrlash, do'stlik va birodarlik munosabatlariga rioya qilish haqida so'z yuritadi. Odobsizlik, yolg'onchilik, hasadgo'ylik kabi illatlar jamiyatning inqiroziga olib kelishini tushuntiradi. Yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash muhimligini ta'kidlaydi. Turkiston xalqlari taraqqiy etishi uchun bilimli va vatanparvar yoshlar kerakligini aytadi.

Abdulla Avloniy tomonidan ilgari surilgan vijdon konsepsiyasi bugungi ta'limda shaxsiy mas'uliyat, axloqiy muvozanat va ichki nazoratni rivojlantirishda o'ta dolzarb hisoblanadi. Uning ta'kidlashicha, inson o'z harakatlarini baholashda tashqi



qonun-qoidagacha emas, avvalo ichki hissiyot va vijdon mezoniga tayanmog'i lozim. Bu g'oya zamonaviy pedagogikada axloqiy tarbiyaning markaziga aylanishi lozim.

MUHOKAMA

Muhokama jarayonida shuni alohida qayd etish zarurki, Avloniyning qarashlari hozirgi kunda o'quvchilarda o'zini anglash, o'z harakatlariga tanqidiy yondashish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishda xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida axloqiy mezonlar va qadriyatlar buzilayotgan bir paytda, vijdon tarbiyasi orqali shaxsning ruhiy-axloqiy immunitetini mustahkamlash ta'limning asosiy vazifasiga aylanishi kerak.

Shuningdek, muhokama davomida Avloniy asaridagi axloqiy g'oyalarning nafaqat tarixiy, balki amaliy-pedagogik qiymati borligi, ularni darslik va o'quv dasturlariga integratsiya qilish zarurati muhokama etilishi mumkin. Chunki bu asar orqali yoshlar qalbiga milliy g'urur, adolat, insoflik va halollik singari fazilatlar chuqur singdirilishi mumkin.

NATIJA

Abdulla Avloniy tomonidan yozilgan "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Asarda ilgari surilgan vijdon, halollik, adolat, xolislik kabi g'oyalar nafaqat o'z davri, balki bugungi ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bu asar maktab ta'limiga integratsiya qilinsa, o'quvchilarning axloqiy ongini shakllantirishda samarali vositaga aylanishi mumkin.

XULOSA

Abdulla Avloniy asarida ilgari surilgan axloqiy g'oyalar bugungi ta'limda ham dolzarb ahamiyatga ega. "Turkiy Guliston" yoshlarda vijdon, halollik va insoniylikni shakllantirishda muhim manbadir. Ushbu asarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish ma'naviy tarbiyada yuqori samaradorlik beradi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Avloniy, A. (1913). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Matbaai Turkiston.
2. Maqsudov U. B. Q., Qosimova G. E. Q. TALABALARDA MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI //Oriental



renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №.

11. – C. 988-995

3. Qurbonovich M. U. B. TALABALARDA MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. – 2022

4. Rahmonov, I. (2010). Jadidchilik harakati va uning tarbiyaviy g'oyalari. Toshkent: Ma'naviyat.

5. Rasulov, A. (2015). Ma'rifatparvarlik va milliy taraqqiyot. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.

6. Usmonov, Q. (2005). Jadidlar tafakkurida ta'lim va tarbiya masalalari. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

7. Vohidov, S. (2007). Avloniy va jadidchilik harakati. Toshkent: Sharq.

8. Xudoyberganov, A. (2020). O'zbek adabiyotida jadidchilik an'analari. Toshkent: Istiqlol.

9. Yo'ldoshev, M. (2018). O'zbek jadidchiligining ma'rifiy merosi. Toshkent: Fan va texnologiya.